

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**JURNALISTIKANING ZAMONAVIY TARAQQIYOT TENDENSIYALARI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta‘lim sohasi: 320000 – Jurnalistika va axborot
Mutaxassislik: 70320101 – Jurnalistika


Toshkent-2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
Institute direktori



H.V. Mirzaxmedova

Tarjimashunoslik, tilshunoslik
va xalqaro jurnalistika oliymaktabi
boshlig'i



S.T. Mustafayeva

ARM boshlig'i

M.M. Yuldasheva

Fan/modul kodi JZTT1206		O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Jurnalistikaning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari	72	108	180	
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga an'anaviy va yangi media evolyutsiyasi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari, elektron OAV, yangi raqamli va tarmoq kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi, OAVning "to'rtinchi hokimiyat" sifatidagi nazariyasi va amaliyoti, yangi kommunikatsiya tartibining o'rnatilishi haqida tasavvurlarni berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – jurnalistikada axborotning falsafiy mohiyatini, axborot nazariyalarining o'rni va ahamiyati, xorijiy mamlakatlarda OAVning o'rni va jahon axborot almashinuv jarayonlariga ta'sirini, axborot jamiyatda milliy mentalitet asoslarini tashkil etish nazariyasi, huquqiy asoslari, axloqiy me'yorlarining faoliyatiga erkin baho berish va bu borada yetarli ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p style="text-align: center;">Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Fudan universiteti (AWRU 50) va Pensilvaniya universiteti (AWRU 14) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi:</p> <p>https://xwxy.fudan.edu.cn/xwdtw/list.htm https://www.asc.upenn.edu/undergraduate/courses?term=All&faculty=All&concentration=All</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- Semestr. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya taraqqiyoti tamoyillari</p> <p>1- Mavzu. Kirish. Fanning predmet va vazifasi</p> <p>Matbuot va jurnalistikaning huquqiy –demokratik davlat va fuqarolar jamiyati qurishda tutgan o'rni, mamlakat o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi haqida haqqoniy va yuqori saviyadagi materiallar tayyorlash lozimligi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev jurnalistika haqida.</p> <p>OAV tizimida matbuot. Matbuotning voqyea-hodisalar haqida tezkorlik bilan axborot berishi va ularga nisbatan aholi fikrini xolisona shakllantirishda tutgan o'rni. Matbuotning axborot tarqatish, madaniy-a'naviy, interaktiv, tashkilotchilik, ma'rifiy, mafkuraviy, rekreativ kabi vazifalari.</p>				

Talabalarda xorijiy va milliy matbuotning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari, “sariq matbuot”ning ildizlari, penni-press, tabloid nashr shakllarining taraqqiyoti, elektron OAVning paydo bo‘lishi, yirik nashriyotlar, yirik matbuot konsernlari, axborot agentliklari va ularni moliyalashtirish yo‘llari, mediarejalashtirish, matbuot industriyasining rivojlanish bosqichlari, radio-, teleindustriyaning daromad manbalari, zamonaviy mediabozorda tijoriy va jamoatchilik televideniyesi, infotainment, warteinment, businessteinment, Gatekeeper model, Agenda-setting kabi tushunchalari, jamoatchilik eshittirishlari prinsiplari, zamonaviy radioeshittirish formatlari haqida tasavvur uyg‘otishdan iborat.

2 – mavzu. Matbuot taraqqiyoti tamoyillari (4 soat)

Rivojlangan mamlakatlar jurnalistikasi uchun xos asosiy tamoyillarning vujudga kelganligi. Matbuot sahifalaridagi muhim mavzular va muammolar, matbuot boshqaruvining markazlashtirilishi masalalari. Yirik konsernlarning mavjudligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan jahon axborot bozori va dunyoning yirik media korporatsiyalari o‘rtasida o‘zaro auditoriya va ta’sir doirasini kengaytirish uchun kurash. Matbuot jurnalistikasining eksporti va importi masalalari. Aksar rivojlangan yevropa davlatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan matbuot kengashlari va ularning ishlash mexanizmi, kengashlar faoliyatining samaradorligi.

OAV evolyusiyasini, taraqqiyotining asosiy bosqichlarini, birinchi matbaa nashrlari, gazetalarning jamoatchilik nuqtai nazari va fikrlarini ifoda etuvchi vositaga aylanganligi. Jurnalistikaning tarixiy tiplari, elektron OAVning paydo bo‘lishi, OAVning «to‘rtinchi hokimiyat» sifatidagi nazariyasi va amaliyoti, axborot agentliklari va ularning vazifalari, ishlash metodlari, tasnifini, yangi kommunikatsiya tartibining o‘rnatilganligi.

3 – mavzu. Yangi media maxsus mavzular

Yangi media kurslarini o‘rganing va foydalaning. Ma’lumotlar jurnalistikasi va algoritm tadqiqotlari seriyasi

4 - mavzu. Media operatsiyalari va boshqaruvi maxsus mavzu

Media konvergentsiyasini rivojlantirish seriyasi. Yangi media operatsiyalari va boshqaruvi seriyasi.

5 – mavzu. Jurnallar uchun reportaj

Aloqa ta’limi talabalar tamonidan yaratilgan sayti uchun multimedia hikoyalari va boshqa hikoyalar elementlarini hisobot berish, yozish va ishlab chiqarish bo‘yicha amaliy tajriba.

6 – mavzu. Zamonaviy AQSh OAV taraqqiyotining xususiyatlari va ularning milliy matbuot taraqqiyotiga ta’siri

Ilk amerika matbuotining paydo bo‘lishi, birinchi nashrlarning ko‘rinishlari, “sariq matbuot”ning ildizlari, nashr tabloid shakllarining taraqqiyoti, elektron OAVning paydo

bo'lishi, yirik nashriyotlar, yirik media konsernlar, AQSh axborot agentliklari va ularni moliyalashtirish yo'llari.

Mamlakatda matbuot taraqqiyotining o'ziga xosliklari. Jurnalistika taraqqiyoti uchun asos bo'lgan huquqiy va axloqiy asoslar. Zamonaviy bosqichda mamlakat bosma nashrlar faoliyati taraqqiyotining muhim jihatlari.

Matbuotining "sifatli" va "ommaviy" kabi turlarga farqlanishini, gazeta, jurnal bozorining shakllanishi, nashriyot monopoliyalarini, teleradioning tiklanishi va taraqqiyotini, axborot agentliklari, gazetalarninig siyosiy yo'nalishlari.

7 - mavzu. XXI asr boshida Angliya OAVidagi inqiroz

Angliya matbuotining taraqqiyoti bosqichlari, XX asr boshlarida matbuotning "sifatli" va "ommaviy" kabi turlarga farqlanishi, gazeta, jurnal bozorining shakllanishi, nashriyot monopoliyalari haqida, teleradioning tiklanishi va taraqqiyoti, axborot agentliklari, Buyuk Britaniya gazetalarninig siyosiy yo'nalishlari. 2001 yil 11 sentyabr voqyealarining Angliya OAViga ta'siri hamda ularning keskin tarzda qisqarib ketishi. Xalqaro iqtisodiy inqirozning reklama bozoriga ham ta'sir etgani.

8- mavzu. Zamonaviy Xitoyda ommaviy axborot vositalari, madaniyat va jamiyat

1970-yillardan hozirgi kungacha Xitoy ommaviy axborot vositalari, madaniyati va jamiyatini qamrab oladi. U ijtimoiy va institutsional o'zgarishlarning sabablari va oqibatlarini o'rganadi, bunda fuqarolik faolligi, madaniy o'zgarishlar va raqamli media ta'siriga e'tibor qaratiladi. Ushbu o'zgarishlarni tahlil qilishda kurs tarixiy kontekstlarga alohida e'tibor beradi va sotsiologiya, aloqa va tegishli sohalardagi tushunchalar va nazariyalarga asoslanadi. Zamonaviy Xitoy ommaviy axborot vositalari, madaniyati va jamiyati hamda madaniyatlararo hodisalarni kengroq tushunishga nozik va murakkab yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi.

9- mavzu. Fransiya OAV va mahalliy matbuot taraqqiyoti masalalari

Fransiya kundalik matbuotining paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari. XX asrning 1-yarmidagi Fransuz jurnalistikasi, Qarshilik davri matbuoti, urushdan keyingi matbuot bozorining taqsimlanishi, gazeta – nashriyot monopoliyalari haqida. Fransiyada markaziy matbuot bilan bir qatorda mahalliy matbuot ham taraqqiy etgani va ularning auditoriya uchun muhimligi. Taym Uorner konsernining paydo bo'lishi ko'plab telekommunikatsiya korporotsiyalari va axborot imperiyalarining birlashishiga olib kelganligi. Fransuz mediamagnati Mesening jahon media bozorida paydo bo'lishi. U «Vivendi» transmilliy konsernini tuzib, Amerika xududiga xam kirib borganligi va ko'plab Amerika xamda yevropalik mediamagnatlarni ortda qoldirgani hamda Xollivudnin gyirik «Yuniversal» fabrikasini sotib olgani.

10 – mavzu. Germaniya OAVining rivojlanish tamoyillari

Germaniya matbuoti paydo bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, birinchi va ikkinchi jahon urushi davridagi Germaniya jurnalistikasi, 50-yillarda nemis matbuotining yiriklashuvi, Germaniyada audio va video jurnalistikasi taraqqiyoti, "Berlin devori" davri jurnalistikasi, ikki Germaniyaning qo'shilishidan keyingi OAVning yangi holati.

Kirx nemis korporatsiyasining G'arbiy Yevropa mamlakatlari Ispaniya va Italiya mediabozoridan nemis hamda boshqa yevropalik raqiblarini siqib chiqargani hamda o'z pozitsiyasini mustahkamlab borayotgani.

Kirxning ushbu muvaffaqiyatli siljishlari Nyu-Yorkdagi terrorchilik portlashlari tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy talato'plardan keyin to'xtab qolgan. Bundan tashqari, yuksak texnologiyalar soxasidagi katta o'zgarishlar ham 2002 yilning ikkinchi yarmida Kirx va Meselarning konsernlari axborot-kommunikatsiya doirasidan yo'qolishiga sabab bo'lgani. Ushbu iqtisodiy zarba tagida yirik media imperiyalar ham yo'qolib ketgani haqida.

11 - mavzu. Italiya OAVi rivojlanish bosqichlari zamonaviy media taraqqiyoti

Italiya matbuoti tarixi va amaliyoti, yirik Italiya nashriyotlari va tele-radio tarmoqlari, Vatikan matboti. Onlayn OAVda gazeta va jurnallarning qog'oz bosmalari evaziga bozorda tenglashish jarayoni. Iqtisodiy, texnologik va funksional to'siqlarning paydo bo'lishi: texnologiya auditoriya ehtiyojidan ham ilgari ketganligi, Internetdan farqli ularoq raqamli OAVni "xonakilashtirish" jarayoni tinglovchi va teletomashibinlar qiziqishlari bilan to'qnash kelayotgani haqida.

12 – mavzu. Yaponiya gazetalarining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy taraqqiyoti

XIX-asrga kelib Yaponiyaga yevropa kundalik matbuotlarining kirib kelishi, ilk haqiqiy milliy gazeta uchun chop etilishi, sifatli umummilliy gazetalar, ixtisoslashgan matbuot, siyosiy partiyalar matbuotlari, Yaponiya televidiniesi va radiosi, axborot agentliklari. Yaponiya Konstitutsiyasida matbuot va so'z erkinligining kafolatlanishi. OAVlarining senzurdan xoliligi Yaponiya OAVlarining muhim prinsiplaridan biri sifatida. "Uzatuv to'g'risida"gi Qonunning mohiyati va undagi o'zgarishlarning tadriijiy shakllanishi. Matbuot uchun Kodekslarning qabul qilinishi va ularning vazifasi.

13 – mavzu. Afrika va Lotin Amerikasi OAVi taraqqiyoti tendensiyalari

Afrika va Lotin Amerikasi kundalik matbuotining taraqqiyotiga kolonial siyosatning ta'siri, ushbu mintaqalari OAV idagi yangi axborot tartibining joriy etilishi. Ushbu qit'a OAVining rivojlanish istiqbollari va hamkorlik tamoyillarining huquqiy kafolatlari. JAR,

Morokko, Jazoir, Argentina, Braziliya mamlakatlari OAVning zamonaviy tarkibiy tuzilishi. Mazkur qit'alarda so'z erkinligining ta'minlanishi.

14 – mavzu. Osiyo mamlakatlari OAVlari taraqqiyoti (4 soat)

Xitoyning birinchi rasmiy gazetalar, 19 asrda Xitoyda birinchi yevropa tipidagi gazetalarning paydo bo'lishi, XXRning tashkil topishi va yangi OAV tizimining taraqqiyoti, axborot angetliklari, Xitoy tele va radio evolyusiyasi. Isroil, Turkiya, Hindiston jurnalistikasi, Eron, Afg'oniston, Pokiston kundalik matbuotining taraqqiyotiga dinning ta'siri, Arab mamlakatlari, Janubiy-Sharqiy Osiyo matbuoti.

Xitoy, Ispaniya, Isroil, Turkiya, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Pokistondagi sifatli umummilliy gazetalar, ixtisoslashgan matbuot, siyosiy partiyalar matbuotlarini, teleradioning paydo bo'lishi va taraqqiyot tendensiyalarini, axborot agentliklari. Kundalik matbuotining taraqqiyotiga dinning ta'siri, Arab mamlakatlari, Janubiy-Sharqiy Osiyo matbuoti, Afrika, Avstraliya mintaqalari OAV taraqqiyoti, Sharqiy yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi yangi axborot tartibi.

15 – mavzu. O'rta Osiyo mamlakatlari jurnalistikasi. (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston)

O'rta Osiyo mamlakatlarining jahon ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi. O'rta Osiyo mamlakatlarida jurnalistikaning tarixiy taraqqiyoti. Mazkur mamlakatlarda zamonaviy tushunchadagi jurnalistikaning paydo bo'lishida boshqa qit'a, xususan, Rossiya jurnalistikasining ta'siri kuchli bo'lganligi. Hozirgi kunda O'rta Osiyo mamlakatlarida jurnalistika taraqqiyotining o'ziga xos qirralari. Hozirgi davrda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston mamlakatlarida OAV turlari taraqqiyotini ta'minlash borasida amal qilayotgan huquqiy me'yoriy hujjatlar, ularning jurnalistlar faoliyatida huquq va erkinliklarning ta'minlashdagi o'rni. O'rta Osiyo mamlakatlarining yetakchi OAV faoliyatiga umumiy tavsif.

16 - mavzu. Hozirgi zamon Rossiya matbuoti taraqqiyoti

Rossiya matbuoti taraqqiyotining tarixiy ildizlari. OAV erkinligi – huquqiy davlatdagi OAV faoliyatining asosiy tamoyili sifatida. “Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi” Qonunning mohiyati, uning xalqaro va konstitutsiyaviy me'yorlar bilan uyg'unligi. Milliy qonunchiliklarda inson huquqlarining xalqaro me'yorlar bilan bog'langanligi. Rossiya Federatsiyasining “Davlat ommaviy axborot vositalarida hokimiyat organlari faoliyatining yoritilishi tartiblari to'g'risida”gi Qonunning ahamiyati. Rossiya Federatsiyasining OAV to'g'risidagi Qonunlari va qonun osti hujjatlarining O'zbekiston Respublikasining OAV to'g'risidagi qonunlari bilan hamohangligi va farqli jihatlari to'g'risida.

Tuxmat qilmaslik, shaxsiy hayotga aralashmaslik, davlat, fuqarolar sirlarini oshkor etmaslik, davlat organlari va mansabdor shaxslar sha'nini kamsitmaslik yuzasidan jurnalistlarning burchlari.

17 - mavzu. Mardlik va ommaviy axborot vositalari

Ushbu kurs Amerika va jahon ommaviy axborot vositalarida maskulinlikning qurilishini o'rganadi, maskulinlik ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy me'yorlarga parallel ravishda qanday rivojlanganligini yoritadi. Keys-stadilar va ko'plab nazariy yondashuvlardan foydalangan holda, biz butun dunyo bo'ylab erkaklik tuzilmalari mavjud holatni qo'llab-quvvatlash yoki unga qarshi turishga qanday xizmat qilganini tushunishga harakat qilamiz. Vaqt davrlari va turli madaniy kontekstlar bo'yicha alohida matnlarni tahlil qilish bizga erkaklik g'oyasi va uning ommaviy axborot vositalarida tarqalishi bilan yaxshiroq kelishib olishga yordam beradi.

18 - mavzu. Yangi media va siyosat

Ushbu kurs rivojlanayotgan media landshafti va siyosiy jarayonni uch nuqtai nazardan o'rganadi: saylovchi, siyosiy kompaniyalar va nomzodlar, rivojlanayotgan va kengayib borayotgan media muhiti. Talabalar siyosiy kontent moderatsiyasi, noto'g'ri ma'lumotlar, saylovoldi nutqlari/reklamalar, ovoz berishni tartibga soluvchi qonunlar bilan bog'liq ijtimoiy tarmoqlar va katta texnologiyalarning o'zgaruvchan roli haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kommunikatsiyaning yangi davri va uning istiqbollari
2. Media: mutaxassislashmagan va keng jamoatchilikka mo'ljallangan
3. Yangi texnologiyalar, shaxs va jamiyat
4. Sotsial tarmoqlarda jurnalistika mohiyati
5. Jurnalistika va fuqarolik jamiyatining o'zaro munosabatlari
6. Bloggerlik fenomeni, ishbilarmonlik sohasida bloggerlik
7. Yangi media va undan foydalanish yo'llari
8. Germaniyada internet va mobil aloqalar istiqboli
9. Sharqiy yevropada virtual media taraqqiyoti
10. Onlayn nashrlar taraqqiyoti

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Yangi medianing tanqidiy nazariyasi
2. Internetda qidiruv media tizimlari
3. Internet va bepul matbuot
4. Internet yangiliklar portali

	<p>5. Internet ensiklopediyalar</p> <p>6. Sotsial tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli</p> <p>7. Afrika OAV tizimi va raqamli format</p> <p>8. Globallashuv sharoitida jurnalistikada etika masalalarining o'рни va ahamiyati</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan shaklidan qat'iy nazar (referat, prezentatsiya, loyiha) mustaqil ishi tayyorlanadi va uning taqdimoti tashkil qilinadi.</p>
3.	<p>Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.</p> <p>Magistrant:</p> <ul style="list-style-type: none"> • taraqqiy etgan mamlakatlarda an'anaviy va yangi media taraqqiyoti bosqichlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; • axborot uzatishning pochta, televidenie, radio, davriy nashrlar kabi an'anaviy kanallaridan foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi; • yangi media industriyasining bozor iqtisodiyotining reklama va marketing, televidenie va radio kabi ko'pgina tarmoqlari bilan hamkorligida ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • taqdimotlarni qilish; • debatlar;
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy iazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <p>✓ 1. Zamonaviy bosma OAV muammolari: xalqaro va milliy tajriba. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materillari. Toshkent, "O'zbekiston". 2020</p> <p>✦ 2. Rodrigo Zamith The International Journalism Handbook, 2022</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>6. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023</p> <p>1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.</p>

2. Sh.M. Mirziyoyev Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. Irnazarov K.T. va boshqalar. Zamonaviy jurnalistika. O‘quv qo‘llanma. T.: “Zar qalam”, 2006.
4. Rashidova D.K. Internet v Uzbekistane: возможности и проблемы. T.: “Zar qalam”, 2003.
5. Maklyuen M. Galaktika Gutenberga. Становление человека печатают его. M.: izd.vo: “Akademicheskij proekt”. 2015.
6. Toffler E. Шок будущего. M.: izd.vo: “AST”. 2002.
7. Bodriyyar J. Общество потребления. его мифы и структуры. M., 2006.
8. Медиаэкономика зарубежных стран: Учебное пособие / yelena Vartanova.– Myu: Aspekt Press, 2003. – 335 s.
9. «Bosma ommaviy axborot vositalari uchun qo‘llanma». N.Qosimova va b. T.2008., 154 b.

Skopus maqolalari

10. Una Endemaño A., Taboada Castell C., Iturregui Mardaras, L., Cantalapiedra Gonzalez M.J. (2024). International organizations and the safety of conflict journalists: analysis of the characteristics, structure, and resources of their virtual press rooms. *Brazilian Journalism Research*, 20, e1634.

<https://doi.org/10.25200/BJR.v20n1.2024.1634>.

Axborot manbaalari:

11. <http://www.mobus.com>
12. <http://www/msu.ru/libraries>
13. <http://www/livejournal.com>
14. <http://www/Merriam-webster.com>
15. <http://www/cyber.law.harvard.edu/webcred>
16. http://de.wikipedia.org/wiki/Neue_Medien
17. <http://www.newmediatrendwatch.com>

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025-yil “18” 06”
dagi 24-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil “28”
08”
dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

8. Fan/modul uchun mas’ullar:

M.K.Saliyeva – TDSHU, “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

	D.Sh.Ro'ziqulov – TDSHU, “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi katta o'qituvchisi, PhD.
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.Karimov – O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti dekani, f.f.n.</p> <p>Sh. Taylakova – O'zJOKU, raqamli media va internet jurnalistikasi kafedrasini mudiri, p.f.d.</p>

Leaf